


Ertaqlar - yaxshilikka yetaklar

HUNAR DAN UNAR



ZIYO NASHR

Burungi zamonda bir podshoh bor ekan.
Bir kuni u bir kambag'alning qiziga uylanmoq-
chi bo'lib, sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib pod-
shohning so'zini qizga aytishibdi.




Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV No 2023/21-153

Qiz sovchilarga:

– Podshohga borib aytinglar, uylanmoqchi bo'lsa, men ham rozi-
man. Lekin podshohning bir hunari bo'lsagina unga turmushga chiqa-
man, agar biror hunari bo'lmasa o'rgansin, – debdi.

Sovchilar podshohning oldiga kelib, qizning shartini aytishibdi.

Podshoh bu gapni eshitib, avval achchig'i chiqibdi, so'ng o'ylab
qolibdi. Qizning gapi ta'sir qilib: „Podsholigim hunar emas ekan-
da. Mayli, hunar ham o'rganay“, deb o'z o'rniga vazirini qoldirib, hunar






o'rganish uchun chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni bir-bir ko'rib chiqibdi va gilam to'qish hunari ma'qul bo'libdi. Gilam to'qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to'qishni o'rganibdi. „Hunar o'rgandik, shartini bajardik“, debdi va bir gilam to'qib, qizning uyiga yuboribdi.

Qiz:

– Podshoh shartni bajargan bo'lsa, men ham so'zimda turaman, deb unga turmushga chiqibdi.

Podshoh to'y-tomosha qilib qizga uylanib, baxtli yashay boshlabdi.









Kunlardan bir kun podshohga mamlakatidagi savdogarlar, katta-katta boylar izziz yo'qolib qolayotgani haqida xabar berishibdi. Qancha qidirishsa ham yo'qolganlarning daragi topilmabdi. Podshoh „Bularni o'zim axtarayin, shaharda bir sir borga o'xshaydi, buni tagiga yetmasam bo'lmaydi“, deb oddiy kiyimda, yarim tunda shahar aylanish uchun chiqib ketibdi. Aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko'rinibdi. Podshoh to'g'ri shu chiroq ko'ringan joyga borsa, bir yemakxona ekan. Yemakxonaning ichida odamlar ovqatlanib o'tirganmish. Eshikni ochib qarashi bilan yemakxona egasining ko'zi podshohga tushibdi va:

– Nima ishingiz bor? – deb so'rabdi.

– Qornim och, ovqat yemoqchiman, – debdi shoh.




Yemakxona egasi:

– Qani, ichkari kiring, to‘rga o‘ting, – deb podshohni ichkari uyga olib kiribdi. Podshoh to‘rga o‘tayotib, birdan yerto‘laga tushib ketibdi.

Qarasa, ro‘parasida bir odam turganmish. U odam podshohni qo‘lidan tutib, ichkari uyga olib kiribdi. Uyda odam juda ko‘p ekan. Podshoh hayron bo‘lib, indamay turaveribdi. Bir kishi o‘tirgan yeridan turib, qo‘liga katta pichoqni olib: „Qani, hozir navbat kimniki?“ – deb to‘g‘ri podshohning oldiga kelibdi. Birovi kelib kallasidan ushlabdi. Podshoh esankirab, ularga:






– Sizlar kimsizlar, sizga jon kerakmi, yoki pul kerakmi? – debdi.

Ular:

– Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo‘lmasa, jon kerak, hozir se-ning kallang kerak, – deyishibdi.

– Men pul, mol topib beraman, – debdi podshoh.

Ular rozi bo‘lishibdi.





Podshoh:

– Unday bo'lsa mening aytganimni qilasizlar. Bir gilam to'qib bera-man, shuni podshohga olib borsangiz, ming tillaga oladi, – debdi.

– Qani, oldin hunaringni ko'raylik, – deyishibdi ular.




Podshoh gilam to'qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar podshohning aytgan narsalarini olib kelishibdi. Podshoh ipakdan bir gilam to'qib:

– Mana bu gilamni saroyga olib boringlar. Podshoh sizga ming tilla beradi, – debdi.







Haligi odamlar gilamni ko'tarib podshoh saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkariga olib kirib, kimga berishini bilmay, vazir bilan maslahatlashibdi. A'yonlar podshoh yo'qolib qolganidan hayron bo'lib, qayerdan izlashni yurgan ekanlar. Gilamni malikaga ko'rsatibdilar. Malika eri to'qigan gilamni tanib, gilam keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan soqchi qo'yibdi. O'g'ri til-lalarni olib, suyunib, to'g'ri yemakxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan soqchi vazirga xabar beribdi. Vazir bir qancha askarlarini olib kelib, yemakxonani o'rab, ichkariga kirib, podshohni qutqaribdi. Podshoh asirdagi odamlarning barchasini ozod qilibdi. Qaroqchilarining qo'lini bog'lab, saroyga keltirishibdi. Ularning hammasini jazoga tortib, mam-lakatni odillik bilan boshqarib, murodiga yetibdi.

E 83 **Hunardan unar.** [Matn]: ertak. / – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti,
2022. – 16 b.

ISBN 978-9943-6443-6-6

UO‘K: 821.512.133-343.4

KBK 83.8

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

HUNARDAN UNAR

Ertak

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir

Abdurahmon Jo‘rayev

Badiiy muharrir

Nasiba Ergasheva

Musahhih

Malika Kamolova

Sahifalovchi

Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

30.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108^{1/16}.

Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 0,10. Adadi 30 000. Shartnoma № 187–20

Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“

Mas‘uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

Ertaklar - yaxshilikka yetaklar

HUNAR DAN UNAR



ZIYO NASHR



fb.com/ziyo.nashr

ziyonashr@mail.ru



Uchar Gilam
ONLINE DO'KON



YANGI

KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI

ONLAYN

XARID

QILISH UCHUN

QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-6443-6-6



9 789943 644366